

BO‘LAJAK OQ‘ITUVCHILARNING KASBIY DEONTOLOGIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH SAMARADORLIGINING PEDAGOGIK TAJRIBA-SINOV NATIJALARI

Turdiyev Sog‘lombek Rahmat o‘gli

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21870132>

Zamonaviy oliy pedagogik ta‘lim tizimida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy deontologik madaniyatini shakllantirish nafaqat nazariy, balki amaliy-tajribaviy asoslashni ham taqozo etadigan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Nazariy tahlillar deontologik madaniyatning mazmun-mohiyati va tarkibiy komponentlarini yoritib bergan bo‘lsa-da, uni shakllantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvning real ta‘lim jarayonidagi samaradorligini tajriba-sinov ishlari orqali isbotlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur tezisning maqsadi — bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy deontologik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan pedagogik tashxislashga asoslangan model va metodikaning samaradorligini tajriba-sinov ishlari natijalari asosida yoritishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida pedagogik eksperiment, so‘rovnoma, test, kuzatuv, suhbat va o‘z-o‘zini baholash metodlaridan foydalanildi. Tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda kompetentlikka yo‘naltirilgan yondashuv asoschilari A.V.Xutorskoy va I.A.Zimnyayaning ilmiy qarashlariga, shuningdek V.A.Slastyoninning pedagogik faoliyat nazariyasiga tayanildi.¹ Bu yondashuvlar bo‘lajak o‘qituvchida shakllantirilishi lozim bo‘lgan deontologik kompetentlikning tarkibiy qismlarini aniqlashtirishga xizmat qildi.²

Tajriba-sinov ishlari uch bosqichda — aniqlovchi, shakllantiruvchi va yakunlovchi bosqichlarda — tashkil etildi. Tadqiqotda ikkita oliy ta‘lim muassasasining pedagogik yo‘nalishlarida tahsil olayotgan jami 60 nafar bo‘lajak o‘qituvchi ishtirok etib, ulardan 30 nafari tajriba guruhi, 30 nafari nazorat guruhi sifatida belgilandi. Kasbiy deontologik madaniyat darajasini aniqlash uchun to‘rtta mezon — motivatsion-qadriyatli, kognitiv, faoliyatli-amaliy va refleksiv mezonlar — asos qilib olindi.

Aniqlovchi bosqich natijalari shuni ko‘rsatdiki, bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik etikaga oid nazariy bilimlar mavjud bo‘lsa-da, ularni amaliy vaziyatlarda qo‘llash, to‘g‘ri axloqiy qaror qabul qilish hamda o‘z faoliyatini tahlil qilish ko‘nikmalari yetarli darajada shakllanmagan edi. A.V.Karpov ta’kidlaganidek, refleksiv qobiliyat shaxsning kasbiy faoliyatga tayyorligini belgilovchi integrativ hodisa bo‘lib, uning yetarli rivojlanmaganligi kasbiy xulq-atvorning barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.³

Shakllantiruvchi bosqichda tajriba guruhi talabalari bilan maxsus ishlab chiqilgan pedagogik dastur asosida ish olib borildi. Dastur individual rivojlanish rejalarini tuzish, kasbiy deontologiyaga oid seminar-treninglar va mahorat darslarini tashkil etish, axloqiy dilemmalar asosidagi keys-stadi mashg‘ulotlarini o‘tkazish, refleksiv fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni qo‘llashni o‘z ichiga oldi.

¹Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. — 2003. — № 2.

²Зимняя И.А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентного подхода в образовании. — Москва, 2004.

³Карпов А.В. Психология рефлексии. — Москва, 2017. — 89–94 с.

V.V.Boyko empatiya hodisasini kasbiy faoliyat kontekstida tahlil qilar ekan, yuqori empatik darajaga ega mutaxassislarning kasbiy-axloqiy me'yorlarga izchil amal qilishga ko'proq moyil bo'lishini ta'kidlaydi.⁴

Bu qonuniyat tajriba guruhida o'tkazilgan mashg'ulotlar dasturini loyihalashda hisobga olindi va V.P.Bespalko ilgari surgan pedagogik texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish tamoyiliga asoslanildi.⁵

Yakunlovchi bosqichda qayta pedagogik tashxislash o'tkazilib, aniqlovchi va yakuniy natijalar qiyosiy tahlil qilindi. Olingan statistik ma'lumotlar quyidagi jadvalda umumlashtirilgan (1-jadval).

Mezonlar	Aniqlovchi bosqich (%)	Yakuniy bosqich (%)
Motivatsion	38	72
Kognitiv	42	75
Faoliyatli-amaliy	35	70
Refleksiv	30	68

1-jadval. Tajriba guruhida mezonlar bo'yicha rivojlanish ko'rsatkichlari

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhida barcha mezonlar bo'yicha sezilarli ijobiy o'zgarish kuzatildi, ayniqsa refleksiv mezon bo'yicha o'sish 38 foizni tashkil etdi. Umumiy ko'rsatkichlar bo'yicha tajriba guruhida yuqori darajadagi talabalar ulushi 13 foizdan 46 foizga oshgan bo'lsa, nazorat guruhida bu ko'rsatkich sezilarli o'zgarmadi (15 foizdan 21 foizga). Tajriba va nazorat guruhlari natijalari o'rtasidagi farqning 0,05 ishonchlilik darajasida ahamiyatli ekanligi statistik tahlil orqali tasdiqlandi, bu esa o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining ilmiy asoslanganligini isbotlaydi.

N.V.Kuzmina ta'kidlaganidek, pedagog shaxsining professionalligi uning kasbiy faoliyatga bo'lgan ichki motivatsiyasi va refleksiv nazorat qobiliyati bilan uzviy bog'liq bo'lib, aynan shu jihatlar tajriba davomida eng sezilarli dinamikaga ega bo'ldi.⁶

Shunday qilib, o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari pedagogik tashxislashga asoslangan tizimli yondashuvning bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy deontologik madaniyatni shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ilmiy va amaliy jihatdan tasdiqladi. M.Sultonova pedagogik etika va kasbiy deontologiya masalalarini tahlil qilar ekan, bunday natijalarga faqat tizimli, uzluksiz va amaliyotga yo'naltirilgan pedagogik ta'sir orqaligina erishish mumkinligini asoslab bergan.⁷

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi: birinchidan, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning deontologik madaniyat darajasini muntazam pedagogik tashxislash tizimini joriy etish; ikkinchidan, aniqlangan natijalarga tayanib, individual rivojlanish rejalari asosida interfaol mashg'ulotlar, keys-stadi va refleksiv

⁴Бойко В.В. Эмпатия в профессиональной деятельности. — Ростов-на-Дону, 2018. — 67–72 с.

⁵Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. — Москва, 2015.

⁶Кузьмина Н.В. Профессионализм личности преподавателя. — Санкт-Петербург, 2018. — 145 с.

⁷Sultonova M. Pedagogik etika va kasbiy deontologiya. — Toshkent: O'qituvchi, 2016.

treninglarni kengroq qoʻllash; uchinchidan, ishlab chiqilgan metodika va pedagogik shart-sharoitlarni pedagogik amaliyot dasturlariga tatbiq etish. Ushbu tavsiyalarning amaliyotga joriy etilishi boʻlajak oʻqituvchilarning kasbiy-axloqiy tayyorgarlik sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Сластёнин В.А. Педагогика. — Москва: Академия, 2019. — 214–219 с.
2. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. — 2003. — № 2.
3. Зимняя И.А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. — Москва, 2004.
4. Кузьмина Н.В. Профессионализм личности преподавателя. — Санкт-Петербург, 2018. — 145 с.
5. Карпов А.В. Психология рефлексии. — Москва, 2017. — 89–94 с.
6. Бойко В.В. Эмпатия в профессиональной деятельности. — Ростов-на-Дону, 2018. — 67–72 с.
7. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. — Москва, 2015.
8. Sultonova M. Pedagogik etika va kasbiy deontologiya. — Toshkent: Oʻqituvchi, 2016.
9. Egamberdiyeva N. Pedagogik etika va kompetentlik. — Toshkent, 2021. — 88–93-betlar.
10. Isaev A. Kasbiy madaniyat va pedagogik faoliyat. — Toshkent: Fan, 2018.
11. Ishmuhamedov R. Taʼlimda innovatsion texnologiyalar. — Toshkent: Fan, 2018.